

## KATTALARDA VA BOLALARDA ALLERGIYA HOLATLARI

Soyibjonova Komila Yaxyobek qizi  
106-b guruh talabasi, ADTI  
Noibjonova Xurshida Murodjon qizi  
Assistent, ADTI

**Annotasiya.** Ushbu maqolada kattalar va bolalarda sodir boʻladigan allergik holatlar, hamda ularning paydo boʻlish vaqti va sabablari, davolash uchun tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit soʻzlar:** allergiya, antitela, limfotsit, sensibilizatsiya, gistamin, serotonin, metionin, triptofan, gistidin, kazein, albumin, loratidin, allergin, retinol, advantam, ketotifen, elakom.

## ALLERGIC CONDITIONS IN ADULTS AND CHILDREN

Soyibjonova Komila Yaxyobek qizi  
Student of group 106 b, ASMI  
Noibjonova Xurshida Murodjon kizi  
Assistant, ASMI

**Abstract.** This article describes the allergic conditions that occur in adults and children. As well as the time and causes of their appearance. As well as recommendations for treatment.

**Key words:** allergy, antibody, lymphocyte, sensitization, histamine, serotonin, methionine, tryptophan, histidine, kazein, albumin, loratidine, allergen, retinol, advantam, ketotifen, elacom.

Allergiya- organizmga kirgan allergen moddani organizm zamburugʻ, virus yoki bakteriya deb oʻylab unga qarshi kurasha boshlashidir. Allergen organizmga tushganida unga nisbatan haqiqiy yoki soxta reaksiyalar paydo boʻlishi mumkin. Haqiqiy allergik reaksiyada organizmga birinchi marta tushgan allergenga nisbatan sezgirlik ortib boradi va hujayralar antitela ishlab chiqara boshlaydi. Allergen organizmga qayta tushganida limfotsitlar unga qarshi ishlay boshlaydi. Bu sensibilizatsiya davri hisoblanadi. Natijada bir qancha

biokimyoviy jarayonlar sodir bo‘ladi, gistamin va seratonin kabi moddalar ishlab chiqariladi. Gistamin hujayra devoriga tasir qilib fosfolipazani faollaydi, bu ferment fosfatidilinozitolni inozitol fosfat va diatsilglitseringa parchalaydi bu o‘z navbatida teridagi va nafas yo‘llaridagi nerv oxirlarini qitiqlab achishish, qichishish va og‘riqni paydo qiladi. Organizmda allergik kasallik paydo bo‘ladi. Soxta allergik reaksiya allergenga birinchi bor duch kelganida ham yuzaga chiqaveradi. Bunda sensibilizatsiya davri kuzatilmaydi. Allergen to‘g‘ridan to‘g‘ri to‘qima hamda hujayralarni zararlovchi moddalarni paydo qiladi. Soxta reaksiya asosan oziq-ovqat va dori vositalariga nisbatan paydo bo‘ladi. Hozirda “Allergy UK” ma’lumotlariga qaraganda yer yuzida 30-40% insonlar surunkali allergiyadan aziyat chekmoqdalar.

Allergiya uchta davrda bo‘lishi mumkin. Birinchi davr mart oyidan may oyigacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oladi. Bu vaqtda daraxtlar gul ochadi. Ikkinchi davr esa may oyining oxiridan avgustga qadar, dala o‘simliklari gullagan vaqt. Boshhoqli o‘simliklar gullashi bilan esa so‘nggi davr boshlanadi. Bu avgust oyidan noyabr oyigacha davom etadi.

Allergiya asosan uch xil turda bo‘ladi. Bulardan birinchisi oziq-ovqatga allergiya, ya’ni sitrus mevalar rangli taomlar, ikkinchisi uchuvchan moddalarga, ya’ni chang par yoki iforga, uchinchi turida esa jonzotlarga bo‘lgan allergiya tushuniladi, bularga mushuk, kuchuk, chivin chaqishiga yoki biror hayvonning kuchsiz zahriga ham allergiya huruj qilishi mumkin.

Allergiya insonning hayoti davomida orttirilgan yoki tug‘ma, irsiyat orqali ota yoki onadan o‘tgan bo‘lishi mumkin. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, tug‘ulgan chaqaloqlarning 20% qismida allergiyaga moyillik kuzatiladi. 3% qismida esa hayoti davomida allergik kasallik sifatida namoyon bo‘ladi. Homilador ayolning hayot tarzi ham kelajakda farzandining hayotida yuzaga keladigan patologiyalarga sabab bo‘ladi. Agar homilador ayol sigareta hamda alkogol mahsulotlari iste’mol qilsa, farzandida yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan

allergik holatlarning ehtimoli, sogʻlom ovqatlanish ratsioniga ega boʻlgan onaning farzandiga nisbatan ancha yuqori hisoblanadi.





Bola dunyoga kelganidan soʻng iloji boricha ona suti orqali oziqlanishi kerak. Koʻp holatlarda tavsiya qilinmagan qoʻshimcha sut mahsulotlari isteʼmoli orqali bolalarda turli xildagi teridagi toshmalar, ich qotishi yoki ich suyilib ketishi, tinimsiz yigʻlash holatlari kuzatiladi, bu esa bolaning asab tizimiga ham salbiy taʼsirini oʻtkazadi. Normal holatda bolaga olti oygacha qoʻshimcha ovqat berish tavsiya qilinmaydi. Olti oylikdan soʻng oz-ozdan yani bir choy qoshiq bola organizmi uchun yangilik hisoblangan ozuqadan beriladi va bir oz muddat uning bolaga qanday taʼsir qilishi kuzatiladi. Agar salbiy oʻzgarish paydo qilmasa istemol qilishi mumkin. Koʻplab onalar tomonidan farzandlariga juda erta, yani qoʻshimcha ovqat isteʼmol qilish uchun bolaning organizmi tayyor boʻlmasidanoq turli sut mahsulotlari bilan ovqatlantirishadi. Bunga ayniqsa sigir suti yaqqol misol boʻla oladi. Bu mahsulot tarkibida bolalar uchun tavsiya qilinmagan allergiyaga moyillik holatlarini paydo qiluvchi moddalar mavjud, shu sababli ovqatlanish ratsioniga qoʻshishdan avval bolalarning organizmini unga nisbatan qanday reaksiya bildirishini hisobga olish taʼkidlanadi. Onalarga farzandlarining sogʻlom boʻlishi uchun ovqatlanish ratsioni yoritiladigan kundalik tutish tavsiya qilinadi.

Amerikaning “Astma, allergiya va immunologiya” institutining tadqiqotlariga koʻra, toza uy allergiyaning asosiy sababchisi hisoblanar ekan. Bu gʻayritabiiy tuyulsada, lekin ferma, yaylov, oʻtloq va shunga oʻxshash tabiat qoʻynida hayvonlar bilan aloqada boʻluvchi oilalardagi farzandlarning allergiyaga duchor boʻlish foizi, steril hayotda yashab oʻsgan bolalarga nisbatan ancha past boʻlar ekan. Bunga sabab bola organizmida turli allergenlarga nisbatan immunitet hosil boʻlishidir. Agar bola immunitet sistemasi yod allergenga nisbatan antitela hosil qilmasa, allergiya yuzaga keladi.

Allergiyani uch xil usul bilan davolashni amalga oshirish mumkin. Bulardan 1-allergenni hayot tarzidan chiqarib tashlash; 2-allergenga nisbatan immunologik usul bilan kurashish; 3-allergiyaga qarshi dori vositalari qo'llash.

Allergiyaga qarshi qo'llaniladigan dori vositalarining turlari, kimyoviy tuzilishi hamda organizmga salbiy va ijobiy ta'sirlari 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**

T/r	Dori sinflari	Ta'sir etuvchi moddaning nomi	Kimyoviy tuzilishi	Organizmga ijobiy ta'siri	Organizmga salbiy ta'siri
1	antioksidant dorilar	Retinol atsetat (retinol)		Hujayralar bo'linishini kuchaytiradi, infeksiyaga chidamlilikni oshiradi, fotoresepsiya jarayonlarida qatnashadi	Gipervitaminoz A ning simptomlari: bosh o'rik, ko'ngil aynishi, lanjlik, uyquchanlik, oyoq suyaklaridagi og'riq
		Askorbin kislotasi (askorbin kislotasi)		Immunologik reaksiyalari boshqarib organizmni infeksiyaga chiqamliligini oshiradi, jigarda glikogenning to'planishiga yordam beradi.	Uzoq vaqt qabul qilinganida siydik yo'lida tosh hosil bo'lishiga olib keladi, modda almashinuvi buzilishi, arterial gipertenziya,
		Nikotin kislotasi (nikotin kislotasi)		Qon tomirlarni kengaytirib arterial bosimni tushiradi, to'qimalarni nafas olishini va yog' uglevod almashinuvini boshqaradi	Yuz va tananing yuqori qismida sanchiqlar, eshakyemi, qichishish, toshmalar, uzoq muddat qabul qilinganda jihardagi nojo'ya holatlar
2	Antigistamin hususiyatli dorilar	Klaritin (Loratidin)		Allergik reaksiyalarni kuchayishini oldini oladi, yallig'lanishga va infeksiyon kasalliklarga chidamlilikni orttiradi	Uyqusizlik, bosh og'rig'i, ishtahaning pasayishi, taxikardiya, og'iz qurishi, bosh aylanishi

		Allergin (difengidra min)		Yuqori nafas yo'llaridagi qichishish holatlarini yengillashtiradi	Bolalarda qo'zg'aluvchanlik ni ortishiga sabab bo'ladi
		Suprastin (xloropiram in)		Achishishni kamaytiradi, yallig'lanishga qarshi tasir ko'rsatadi, ishtahani ko'taradi, dermatitga qarshi qo'llaniladi	Ko'z yoshlanishi, uyquchanlik, arterial bosimning pasayishi, umumiy holsizlik
		Ketotifen (ketotifen)		Gistamin ishlab chiqarilishini susaytiradi, nafas olishni yengillashtiradi, immunologik reaksiyalarda ishtirok etadi	Sistit, uyqu bosishi, ortiqcha vaznga moyillik
3	Topik glukokorti kosteroid kremlar	Elakom (mometazo n)		Yallig'lanishga qarshi, qichishishga qarshi, qon tomirlarini toraytiradi, dermatitga qarshi qo'llaniladi	Achishish, husnbuzar, teri toshmalari, ikkilamchi infeksiya, allergik kontakt dermatit
		Advantam (metilpredni zolona aseponat)		Allergik astma holatlarida, nafas qisish holatlarida nafas olishni yengillashtiradi	Qo'llangan joyda pufakchalar hosil bo'lishi, allergik reaksiyalar
		Stelosteder m (Selestoder m-B)		Yallig'lanishni kamaytiradi, ekzemaga hamda dermatitga va neyrodermatitni yengillashtiradi	Terining qurishi, gipertrixoz, ikkilamchi infeksiya, follikuliti

Orttirilgan allergiyani tabiiy yo'l bilan bartaraf etish mumkin. Buning uchun allergenga ega bo'lgan mahsulotning iste'molini cheklash va uning ozuqaviy va energetik tarkibini to'ldira oluvchi allergensiz mahsulotlarning iste'moli yo'lga qo'yish. Agar yuqori darajadagi o'zgarishlar sodir bo'lgan bo'lsa iloji boricha tezroq shifokorga murojaat qilish tavsiya qilinadi. Bu ayniqsa allergiya orqali shish holatlari yuzaga kelganida juda havfli hisoblanadi, chunki shish nafas olish sistemasining to'qimalariga yetib borsa nafas olish

sistemasining to‘silib qolishiga va bemorning hayotini havf ostida qolishiga olib kelishi mumkn. Allergiya oqibatida teri sirtida toshmalar, yiringli yaralar, qichishish holatlari, uyquchanlik, uyqusizlik, nafas yetishmasligi yoki nafas olishga qiynalish, yuz-ko‘zlarning qizarishi, tajanglik, ich qotishi va hazm sistemasining turli qismlarida og‘riq paydo bo‘ladi. Shifokor esa allergiya asorati, turi, holatiga va bemorning yoshiga etibor bergan holda antiallergen hususiyatga ega bo‘lgan dori vositasini tavsiya qiladi. Antiallergen xususiyati mavjud bo‘lgan dori vositalarining organizmga ta’siri shundaki, to‘qima va organlarda allergen oqibatida hosil bo‘ladigan turli patalogiyalar hujayralar tomonidan gistamin hamda seratoninni normadan yuqori miqdorda ishlab chiqarilishi bilan bo‘liq, shunday ekan hujayra faoliyatini normaga kelishiga, ya’ni gistamin va seratoninni ishlab chiqarilishini sustlashtiruvchi hususiyatga ega bo‘lgan dori vositalari shifokor tomonidan tavsiya qilinadi. Allergik kasallik hisoblanuvchi allergik rinit hamda allergik astma haqida quyida ma’lumot berildi.

Allergik rinit- allergenlar bilan aloqa qilish natijasida burundagi to‘qimalarning yallig‘lanishi. Bu holat burun oqishi, burun bitishi, qichishish, yo‘tal bilan namoyon bo‘ladi. Allergik rinit- mog‘or zamburug‘lari, gulchanglar, hayvonlar yunggi sababli paydo bo‘lishi mumkin.

Allergik astma- allergik reaksiyalar nafas yo‘llarining torayishiga va siqilib qolishiga olib kelaganda paydo bo‘lgan astma turi. Bunday hollarda nafas olish yo‘llari yangilanadi va bronxlari torayib qoladi, shuning uchun nafas olishning qiyinlashuvi, ko‘krak qafasidagi siqilishlar va hirillash paydo bo‘ladi.

Biz turli hildagi sut mahsulotlarining allergiya chaqirish hususiyatlarini solishtirish uchun qator kuzatishlarni amalga oshirgan holda chaqaloqlarga bir yoshga to‘lmasidan avval sigir, echki, quyon, bug‘u, tuya kabi hayvonlarning loqtatsoya davrida sut bezlaridan ajralib chiqadigan mahsulotlarni ovqat ratsioniga qo‘shish qator salbiy oqibatlarga olib keladi. Jumladan hayvonlarning suti tarkibida temir moddasi, kalsiy hamda fosfor moddalari odam organizmiga

nisbatan juda ham yuqori boʻlganligi sababli dastlab hazm sistemasida qator oʻzgarishlar sodir boʻldi. Ich ketishi, qayt qilish, turli ekssudativ diatez holatlari, suyaklardagi ortiqcha kalsiy va fosfor toʻplanishi sababli suyakning shakllanishida buzilishlar kabi qator salbiy oqibatlar namoyon boʻldi.

Lekin sut tarkibida allergenlik hususiyatidan tashqari organizm uchun foydali hisoblangan kimyoviy moddalar ham mavjud. Misol uchun sut tarkibidagi oqsillardan, kazein, albumin va globulinlar. Kazein asosan juft tuyoqli hayvonlar: sigir, echki va qoʻy sutida. Albuminlar esa toʻq tuyoqlilar sutida: biya, bugʻu va eshak sutida koʻp miqdorda boʻladi. Kazeinli sutda 75% kazein, albuminli sutda 50-65% albumin mavjud. Bular tarkibida almashtirib boʻlmaydigan aminokislotalarning deyarli barcha turi uchraydi. Misol uchun: kazeinli sutda sistein, sistin, metionin, triptofan, gistidin kabi aminokislotalar.

Kimyoviy bilimlarimizga tayangan holda, yuqorida bayon etilgan allergik reaksiyalar natijasi hisoblangan gistamin hamda seratonin kabi biologik faol moddalarning hosil boʻlishi hayvonlar suti tarkibidagi aminokislotalar bilan bevosita bogʻliq. Yaʼni triptofan aminokislotalardan seratonin sintezlanadi, gistidin aminokislotalardan gistamin sintezlanadi. Shunday ekan sut mahsulotlarini ortiqcha istemol qilish bolalar va kattalar uchun qatʼiy taqiqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, inson hayoti davomida kasallikka chalinishi ehtimolini kamaytirishi uchun dastlab toʻgʻri ovqatlanish ratsioniga eʼtibor berishi kerak. Kichik bolalarning sogʻlom voyaga yetishi uchun ham albatta ratsionga amal qilish ijobiy natija koʻrsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Franklin Adkinson Jr. MD, William W Busse MD, et al. Middleton's Allergy: Principles and Practice. Expert Consult: Online and Print, 2-Volume Set 7th Edition. 2008. 1924 p.
2. Fayziyev X.N. Bolalarning parvarishi. Oʻquv-uslubiy qoʻllanma. T.: -2009. 76 b.

3. Eshboyev E.H. Teri va tanosil kasalliklari. Ma'ruzalar to'plami. A.: -2018. 20 b.
4. Mamadov Yu.M., Xo'jamberdiyev M.A., Mamadov B.Yu. Klinik formokologiya. T.: -2010. 464 b.  
<https://www.rlsnet.ru/active-substance/mometazon-1145#structurnaia-formula>
5. Fischer D, Vander Leek TK, Ellis AK, Kim H. Anaphylaxis. Allergy Asthma Clin Immunol. 2018;14(Suppl 2):54. [PMC free article] [PubMed]
6. Decker WW, Campbell RL, Manivannan V, Luke A, St Sauver JL, Weaver A, Bellolio MF, Bergstralh EJ, Stead LG, Li JT. The etiology and incidence of anaphylaxis in Rochester, Minnesota: a report from the Rochester Epidemiology Project. J Allergy Clin Immunol. 2008 Dec;122(6):1161-5.